

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 49 (1110), 2024-yil 8-mart, juma



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

INSON QADRINI ULUG‘LASH, AVVALO, AZIZ-U MUKARRAMA
AYOLLARNI ULUG‘LASHDAN BOSHLANADI

Toshkent shahrida Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosim bo‘lib o‘tdi.



Marosimda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ishtirok etib, ayollarga samimiy mehri va hurmatini izhor etdi.

— Biz har yili bu kunni intiqlik,

qalbmizda ajib ilqlik bilan kutamiz. Ushbu shukhli ayyomda hammamiz bizni dunyoga keltirgan, oq sut, mehr va tarbiya berib voyaga yetkazgan buyuk ona siymosiga, mo‘tabar ayol zotiga ta‘zim qilamiz. Zero,

inson qadrini ulug‘lash, avvalo, aziz-u mukarrama ayollarimizni ulug‘lashdan boshlanadi, — dedi Prezident.

Mamlakatimizda bu maqsad yo‘lida ko‘p ishlar qilinmoqda. Jumladan, “O‘zbekiston



— 2030” strategiyasi doirasida xotin-qizlarning faolligini oshirish, onalik va bolalikni himoya qilish, gender tenglikni qaror toptirish, ayollarning huquq va manfaatlarini ta‘minlash bo‘yicha

keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu barcha sohalarida namoyon. Masalan, siyosiy sohani olsak, saylov kodeksimizda deputatlikka nomzodlarning kamida 40

foizi yoki har 5 nafaridan 2 nafari ayol kishi bo‘lishi zarurligi belgilangan. Hozirgi vaqtda xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi ulushi 2017-yildagi 27 foizdan 35 foizga oshgan.

Davomi 2-betda

YANGI O‘ZBEKISTONDA BUTUN XALQIMIZ QATORI XOTIN-QIZLARIMIZ UCHUN HAM
MUNOSIB SHAROITLARNI YARATIB BERISH — ENG MUHIM VAZIFAMIZ BO‘LIB QOLADIO‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xalqaro xotin-qizlar kuniga
bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi

Assalomu alaykum, hayotimiz quvonchi, fayzu farishtasi bo‘lgan muhtarama onaxonlar, hurmatli opa-singillar, dilbar qizlarim!

Bugun siz, azizlar bilan mana shunday tantanali anjumanda uchrashib, barchangizni, sizlarning timsolingizda butun mamlakatimiz ayollarini Xalqaro xotin-qizlar kuni bilan chin qalbdan qutlash men uchun ulkan sharaf va saodatdir.

Barcha-barchangizga samimiy mehirim va cheksiz hurmatimni izhor etishga ijozat bergaysiz.

O‘zlaringiz kabi go‘zal bayramingiz muborak bo‘lsin!

Muhtaram vatandoshlar!

Ushbu shukhli ayyomda hammamiz bizni dunyoga keltirgan, oq sut berib, mehr va tarbiya berib voyaga yetkazgan buyuk ona siymosiga, mo‘tabar ayol zotiga ta‘zim qilamiz. Zero, inson qadrini ulug‘lash, avvalo, aziz-u mukarrama ayollarimizni ulug‘lashdan boshlanadi.

Shu ma’noda, Mir Alisher Navoiy bobomizning, **jannat bog‘idan bahramandlik istar ekansan, avvalo, munis onani rozi aylagin**, degan so‘zlarini biz eng ezgu da‘vat sifatida qabul qilamiz.

Biz hayotimizning ma’no-mazmuni, butun borlig‘imizni siz, qadrl opa-singillarimizdan ayri holda tasavvur etolmaymiz. Sizlar biz uchun hamisha go‘zallik va nazokat, mehr va sadoqat, qanoat va shukronalik timsoli bo‘lib kelgansiz va doimo shunday bo‘lib qolasiz. Mana shunday olijanob fazilatlaringiz bilan bizlarga hamma vaqt kuch-g‘ayrat, hayotga, kelajakka ishonch bag‘ishlab kelayotganingiz uchun siz, azizlarga har qancha tahsin va tasan-nolar aytsek, arziydi.

Hurmatli opa-singillar!

Yurtimizda mehnatkash, olijanob xalqimiz, birinchi navbatda, xotin-qizlarimiz uchun erkin, obod va farovon hayot barpo etish — davlatimiz va jamiyatimizning eng

ustuvor vazifasi etib belgilangan. Jumladan, “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi doirasida xotin-qizlarning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy faolligini oshirish, onalik va bolalikni himoya qilish, gender tenglikni qaror toptirish, ayollarning huquq va manfaatlarini ta‘minlash bo‘yicha keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Shu maqsadda, avvalo, milliy qonunchiligimiz takomillashtirilib, opa-singillarimiz uchun yanada keng imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Buning tasdig‘ini birgina misol, ya’ni saylov kodeksimizda deputatlikka nomzodlarning kamida 40 foizi yoki har 5 nafaridan 2 nafari ayol kishi bo‘lishi zarurligi mustahkamlab qo‘yilganida yaqqol ko‘rish mumkin.

Bugun ushbu muhtasham zalda hurmatli deputat va senator ayollarimizni ko‘rib turganimdan xursandman. Mamlakatimizda qonunchilikni mustahkamlash, qabul qilinayot-

gan qonunlarimizning adolati va ta’sirchan bo‘lishida ularning ham albatta hissasi katta. Buning uchun xalq vakillari bo‘lgan bu ayollarimizga chin qalbdan minnatdorlik bildiramiz.

Hozirgi vaqtda xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi ulushi 2017-yildagi 27 foizdan 35 foizga yetgani ayniqsa e’tiborlidir. Shu bilan birga, yuzlab oqila ayollar hayotimizning barcha sohalarida jonbozlik bilan faoliyat ko‘rsatayotgani barchamizni quvontiradi.

Bu borada Gender tenglik va oila masalalari bo‘yicha respublika komissiyasi samarali ish olib borayotganini ta’kidlash lozim.

Xotin-qizlarning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish, ular o‘rtasida tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha ham salmoqli natijalarga erishilmoqda.

So‘nggi 5-yil ichida O‘zbekistonda ish-bilamon ayollar safi ikki barobar kengayib, o‘z biznesini yo‘lga qo‘ygan tadbirkor xo-

tin-qizlar soni 205 mingdan oshdi. Birgina 2023-yilda 279 mingdan ziyod tadbirkorlik loyihalariga 13 trillion so‘mdan ortiq kredit, qariyb 57 ming nafar xotin-qizga salkam 300 milliard so‘m subsidiya ajratildi. Shuningdek, 200 mingga yaqin ayollar kasb-hunar va tadbirkorlikka o‘qitildi. Eng asosiysi — 400 mingdan ortiq opa-singillarimiz ish bilan ta’minlandi.

Bundan tashqari, xotin-qizlarga ajratilgan 6 trillion so‘mlik ipoteka kreditlari hisobidan 25 mingdan ziyod oilalar o‘z uyiga ega bo‘ldi. Bu borada 6 ming 200 nafar ayolga uy-joy sharoitini yaxshilash va kreditning boshlang‘ich badalini to‘lash uchun 200 milliard so‘m subsidiya ajratilganini qayd etish lozim.

Shu bilan birga, joylarda xotin-qizlar muammolarini o‘rganish va hal etishga qaratilgan ishlar yangi bosqichga ko‘tarilmoqda. O‘tgan yilning o‘zida

“Ayollar daftari” bo‘yicha 1 trillion 234 milliard so‘m hisobidan qariyb 994 ming nafar xotin-qizning muammosi hal etilgani bu fikrni tasdiqlaydi.

Bu vazifalarni bajarishda Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi, Kasaba uyushmalari federatsiyasi hamda mahallalardagi xotin-qizlar faollarining ishtiroki kuchayib borayotgani ayniqsa muhimdir. Ular tomonidan “xonadonbay” o‘rganishlar natijasida ijtimoiy yordamga muhtoj 690 mingdan ziyod oilaga manzilli yordam ko‘rsatilgani, 116 mingta notinch oilada muhit sog‘lomlashtirilganini bugun alohida e’tirof etamiz.

Qadrl do‘stlar!

Mamlakatimizda bo‘lg‘usi onalar, kelajak tarbiyachilari bo‘lmish qizlarimiz kamolotiga, ularning oliy ta’lim olishi, zamonaviy kasb-hunar va texnologiyalar, xorijiy tillarni egallashiga katta ahamiyat berilmoqda.

Davomi 2-betda

MAHALLALARDA AHOLI DAROMADINI OSHIRISH
MASALALARI KO‘RIB CHIQILDIPrezident Shavkat Mirziyoyev 7-mart kuni mahallalarda aholi daromadini oshirish va kambag‘allikni qisqartirish
chora-tadbirlari muhokamasi yuzasidan yig‘ilish o‘tkazdi.

Mamlakatimizda ishsizlikni kamaytirish maqsadida ko‘plab iqtisodiy dasturlar amalga oshirilmoqda. Kichik biznes va tadbirkorlik qo‘llab-quvvatlanib, hududlarda korxonalar ochilmoqda. Professional ta’lim muassasalari va “Ishga marhamat” monomarkazlarida aholiga zamonaviy kasb-hunarlar hamda xorijiy tillar o‘rgatilmoqda.

Bu yil 5 million aholining bandligini ta’minlash, 2 million kishini tadbirkorlikka jalb etish maqsad qilingan. Buning uchun davlat tomonidan barcha tashkiliy va moliyaviy imkoniyatlar yaratilgan.

Xususan, bu maqsadlarga 16 trillion so‘m ajratildi. Shuningdek, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Mahallabay ishlash agentligi, Fermerlar kengashi jamg‘armalari tomonidan 1,4 trillion so‘m yo‘naltiriladi.

Endi asosiy vazifa bu imkoniyatlarni joylarda samarali ishlatib, aholiga daromad manbai yaratib berishdir.

Prezident topshirig‘iga muvofiq, Jizzax viloyatining G‘allaorol va Sharof Rashidov tumanlari misolida bu borada tez natija beradigan yangi mexanizmlar ishlab chiqilmoqda. Kelgusida bu tizim barcha hududlarda joriy etiladi.

Yig‘ilishda Bosh vazir o‘rinbosari — iqtisodiyot va moliya vaziri J.Qo‘chqorov mazkur tumanlardagi yangi imkoniyatlar va ularni ishga solish bo‘yicha takliflarni bayon etdi.

Unga ko‘ra, har bir mahallaga iqtisodiy kompleks tashkilotlari rahbarlari birlashtiriladi. Ular o‘zi mas’ul bo‘lgan mahalladagi kambag‘al oilalar bilan manzilli ishlab, odamlarning daromadini oshirishga ko‘maklashadi. Arzon kreditlar, subsidiya va imtiyozli resurslar, eng avvalo, aholini

kambag‘allikdan chiqarishga yo‘naltiriladi. Yashirin biznes qonuniylashtirilib, rasmiy ish o‘mi ko‘paytiriladi.

Fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi ham, mahallaga mas’ullar bilan birga, aholi xonadonlarida serdaromad ekin ekishni tashkil qiladi.

Yangi uskunalar va bozor talablarini mahallalarga yetkazish orqali aholiga daromadni oshirishni o‘rgatish zarurligi ta’kidlandi.

Yig‘ilishda vazirlar va hokimlarning ham fikrlari eshitildi. Viloyat hokimlariga rivojlanishdan orqada qolayotgan tumanlarda shu kabi ishlarni tashkil etib, namuna qilish, har bir mahalla kesimida ishsizlikni kamaytirish choralarini ko‘rish topshirildi.

O‘ZA



3



Minnatdorlik

Mehr-oqibat va sadoqat timsoli

Ayol qadri ulug‘langan yurtida ahillik va baraka bo‘ladi

Zulfiya TOSHMATOVA,
Chilonzor tumanidagi “Ko‘rkam” MFY raisi,
II darajali “Sog‘lom avlod uchun” ordeni sohibi

Davlatimiz rahbarining oddiy bir ayolga e‘tibordan juda faxrlandim. Hatto ko‘zimga yosh keldi. Bu e‘tibordan, yuksak e‘tirofdan men endi yanada yaxshi, samarali ishlashim shartligini, ishlaganda ham xalq bilan davlat o‘rtasida haqiqiy ko‘priq vazifasini o‘tashim kerakligini angladim.

Eng muhimi, bugun xotin-qizlar qaysi yo‘nalishda mehnat qilishni istasa, ularga barcha imkoniyat, zarur sharoitlar yaratib berilyapti.

Mana 18 yildirki, mahalla tizimidan. Mamlakatimizda “Inson qadri uchun” g‘oyasi asosidagi islohotlarga hamohang ravishda har bir fuqaroning farovon yashashi uchun qo‘lindan kelgancha xizmat qilayman.

Keyingi yillarda mahalla instituti tizimi bosqichma-bosqich rivojlanib borgan. Bugun mahallaga yana qo‘shimcha kuch va imkoniyatlar taqdim etilyapti. Vakolat ham, mas‘uliyat ham quyi tizimga tushirilmoqda.

Mahallaning jamiyatdagi nufuzi va rolini yuksaltirish, joylardagi muammolarni hal etadigan chinakam tizimga aylantirish, xususan, mahallabay ishlash tizimini kuchaytirish, mahalla fuqarolar yig‘inlari mas‘ullarining ish samaradorligi hamda mas‘uliyatini oshirishga qaratilgan keng ko‘lamli chora-tadbirlar ko‘rilmoqda. Bu borada “mahalla yetiligi” tashkil etilganini alohida e‘tirof etib o‘tish lozim.

Yaqin-yaqingacha mahallada ikki kishi xizmat qilib kelayotgan edik. Endi safimiz kengaydi. Yangi joriy etilgan “mahalla yetiligi” tizimi ana shu yo‘nalishdagi ishlarni yanada yuqori bosqichga ko‘tarishga xizmat qilmoqda.



ENDI FAQAT ACHINMAYMIZ, YORDAM BERAMIZ

Endi ehtiyojmand aholini ro‘yxatga olish, moddiy yordam, subsidiya va kredit ajratish kabi yetimishdan ortiq masala o‘zimizda hal bo‘ladi. Tasavvur qilyapsizmi, Prezidentimiz qanday vakolat berdi mahallaga! Ko‘plab masalalar tuman va shahardagi tegishli idoralarga chiqmasdan, mahallaning o‘zida hal qilinayapti. Ko‘rilayotgan har bir chora-tadbir o‘zaro hamjihatlikda, natijadorlikka yo‘naltirilgan

samarali faoliyat yuritishimizga zamin yaratyapti. Birgina misol, 2023-yilda 5 fuqaromizning jarrohlik amaliyotiga ko‘maklashdik. Biz oldin ularning og‘ir ahvolda ekanini bilardik, lekin achinishdan boshqasiga kuchimiz yetmasdi. Bugun esa ko‘makka muhtoj, ijtimoiy daftarlarda ro‘yxatda turgan ana shunday fuqarolarga yordam berish imkoniyatiga ega bo‘ldik.

Bir so‘z bilan aytganda, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, bilim va kasbiy ko‘nikmalar egallab, munosib ish topishiga ko‘maklashish, salomatligini saqlash kabi masalalarni hal etishga qaratilayotgan e‘tibor, bu borada mahalla tizimiga berilayotgan vakolat, ishonch va mas‘uliyat bizni vatanimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojiga hissa qo‘shish, barcha sohalarida faol bo‘lishga undaydi.



ONAMNING ORZULARI USHALDI

Mohira ESHPO‘LATOVA,
Zulfiya nomidagi
Davlat mukofoti sovrindori



Mehnati, izlanishlari e‘tirof etilib, davlat tomonidan taqdirlanishi har qanday kishini quvontiradi. Bu yilgi bahor men uchun ana shunday quvonchli xabar bilan boshlandi. Zulfiya nomidagi Davlat mukofotiga munosib ko‘rildim.

Navoiy viloyatining Xatirchi tumanida tug‘ilganman. Otam dehqon, onam uy bekasi. Oilada to‘ng‘ich farzandman, uch ukam bor. Ota-onam doim o‘qib, oliy ma‘lumotli bo‘lishimni istagan. Shu bois, yaxshi o‘qishim uchun sharoit yaratib berar, faqat o‘qi, o‘qinglar, derdi. O‘sha rag‘batlar sabab o‘qib-o‘rganishga ishtiyoqim baland bo‘lgan. Mendan so‘ng ikki ukam ham universitetga o‘qishga kirdi. Menga berilgan mukofot sabab esa onamning o‘sha orzulari ushaldi.

Bolaligimda kitob o‘qishni yaxshi ko‘rardim. Qishloqda chiroq o‘chib qolganda sham yurug‘ida ham allamahalgacha mutolaa bilan band bo‘lardim. Ba‘zan otam “Qorog‘ida ko‘zingning nuri ketadi”, deb shamni olib qo‘yardi. Shunday paytlarda ko‘rpaning tagida kirib, mitti fonarchani yoqib, kitob o‘qigdim. O‘shanda olis qishloqning mitti qizchasi ulg‘ayib, poytaxtda bolalarga dars berishini, hikoyalari kitob bo‘lib, kichik xizmati uchun mukofotga munosib ko‘rilishini tasavvur ham qila olmas edik...

Davlat mukofotini olishimda men uchun eng aziz va mo‘tabar zot — onamning mehnati beqiyos. Negaki, kitobga kuchli mehni onam uyg‘otgan. Har kuni tunda bizga ertak aytib berardi. Tushimga eshitgan ehtaklarimdagi voqealar kirardi. Shu bois, bolalik tushlarim ham rangli, qiziqarli edi.

Volildamdag shu iste‘dod menga ham o‘tgan. Yillar o‘tib, hikoyalar mashq qila boshladim. 2023-yilda hikoyalar to‘plamim O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining “Birinci kitobim”

loyihasi doirasida chop etildi. Bu ham biz — yoshlarga berilayotgan katta imkoniyatlardan biri.

Ijodiy faoliyat bilan bir vaqtda yoshlarga ta‘lim-tarbiya berish bilan bandman. Hoziir Shayxontohur tumanidagi maktablardan birida o‘zbek tili va adabiyoti fanidan dars beryapman.

Yurtimizda yoshlar, ayniqsa, qizlarni rag‘batlantirishga katta e‘tibor qaratilmoqda. Xususan, xotin-qizlarning o‘qishi uchun berilayotgan imtiyozlar bizni quvontiradi. Endi jamiyatimizda qiz bolani o‘qitib, kasb egasi bo‘lishiga rag‘batlantirish ko‘payishi kerak. Negaki, qiz bola o‘qib nima qiladi, deydigan ota-onalar hamon topiladi. Ular qizlarni faqat uy-ro‘zg‘or ishlariga “qamab” qo‘yishni istaydi. Biz kabi o‘qituvchi, ijodkor, umuman, ziyoli qatlam bu boradagi targ‘ibotlarga hissasini qo‘shishi shart. Ayniqsa, o‘qituvchilar gender tenglik nima, ne sabab xotin-qizlarga himoya orderi berilyapti, degan savollarga javob bera olishi kerak. Qizlarni o‘qish va o‘rganishga undashi zarur. Ustozlar ko‘quvchiga ilm o‘rgatish bilan birga psixolog, o‘rni kelsa, motivator, do‘st bo‘lsin. Ana shunda jamiyat, mamlakat taraqqiyotiga tom ma‘noda hissa qo‘sha olgan bo‘lamiz.

O‘ZBEK ADABIYOTI DUNYONI KEZSIN, TOBLANSIN!

Maxsuma AHMEDOVA,
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi
a‘zosi, yozuvchi,
“Do‘stlik” ordeni sohibi



Mana, yurtimizga go‘zal bahor ayyomi kirib keldi. Bahor, nafosat bayrami — 8-mart, dunyodagi barcha xotin-qizlar bayrami arafasida davlatimizning mo‘tabar hamda mas‘uliyatli mukofoti men uchun kutilmagan tuhfa bo‘ldi. Bu ajoyib xabarni eshitgan zahoti bir o‘lam hayajon bo‘lmoqda. Bu yosh bilan xalqimizning sevimli yozuvchisi Tog‘ay Muromdi esladim.

Turmush o‘rtog‘im ijodkorligimni juda qadrlar edi. Men uning ko‘nglini olish uchun turli-tuman pishiriqlar pishirsam, undan ko‘ra ikkita hikoya yozsang, odamlarga qoladi-ku, derdi. Juda to‘g‘ri aytgan ekan. “Toji onaning tuguni” hikoyamni o‘qiganida, bu hikoyada inson fojiasi aks etibdi, deb maqtagan hamon esimda. Ellik yoshim arafasida hikoyalarni saralab, “Hikoyalar” deb nom qo‘yib bergan. O‘sha paytlari kitob chiqarish mushkul edi...

2012-yili Tog‘ay akaning xotirasiga bag‘ishlab chiqargan kitobimni “Hikoyalar” deb atadim. Ijod olamida menga Tog‘ay akaning daldalari va maslahatlari juda asqatgan. Qolaversa, hayotda ravon yashab ketish osonmas, hamma oilada muammolar bo‘lishi turgan gap. Ikkalamiz ham ijodkormasimizni, bir-birimizni tushunar edik. Men u kishini qanday bo‘lsa, shunday qabul qildim: inijligiyu bolalarcha samimiyligini... U kishi ham mening ijodiy


rejaralarim bilan jiddiy qiziqardi. Nazarimda, ayni quvonchli kunimda ham Tog‘ay aka yonimda turibdi...

Ushbu mukofot meni bir ijodkor sifatida vatanimiz ravnaqi, taraqqiyoti uchun yangi, ezgu ishlar qilishga undamoqda, xususan, yangi-yangi asarlar yozishga rag‘batlantirmoqda, zimmamga xalqqa xizmat qilishdagi mas‘uliyatni qo‘ymoqda. Nasib etsa, el-yurt, xalq uchun xizmatda bo‘lsam, tilga olgan asarlarni yozsam, elimizga manzur qila olsam, degan orzu bilan yashayman. O‘zbek nasri dunyoni kezishi, toblanishi uchun biz — ijodkorlar hamisha mas‘ulmiz!

O‘zbekistonimizning barcha baxtiyor xotin-qizlari, shu jumladan, taqdirlanganlarni bahor bayrami hamda davlatimizning yuksak mukofotlari bilan chin qalbdan tabriklayman. Bu rag‘bat, ishonch va mas‘uliyat barchamizga kuch, shijoat berib, yangidan yangi zafarlarni quchishimizga ishonaman.

MAQSADIMIZ — IQTISODGA MUNOSIB HISSA QO‘SHISH

Yuliya SERGEYEVA,
O‘rta Chirchiq tumanidagi “Kim Pen Xva chorva” fermer xo‘jaligi boshlig‘i,
“Do‘stlik” ordeni sohibi



Tadbirkor uchun eng muhim jihatlardan biri — huquqiy kafolatlangan erkinlik. Tadbirkorlikni ko‘llab-quvvatlash borasidagi islohotlar bizga shunday erkinlik beryapti. Bu ko‘proq ishlab, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, faoliyatimizni kengaytirishda qo‘l kelyapti.

8-mart — Xalqaro xotin-qizlar bayrami arafasida “Do‘stlik” ordeni bilan taqdirlanganimni eshitib, cheksiz quvondim. Oldinda rejalashtirgan ishlarimni yanada tezroq amalga oshirishga bo‘lgan ishtiyoqim kuchaydi.

Siz mendan bu natijaga qanday erishdingiz,

deb so‘rashingiz mumkin. Bu juda oddiy. Biz, tadbirkorlarga imkoniyatlar eshigi ochildi. Ana shu islohotlar samarasi imkoniyatlardan to‘liq

QARIYB MILLION DOLLARLIK MAHSULOT EKSPORT QILDIK

Nodiraxon QODIROVA,
Rishton tumanidagi “Olimjon-Ilyosbek”
MCHJ rahbari,
“Shuhrat” medali sohibi



8-mart — Xalqaro xotin-qizlar bayrami kuni munosabati bilan bir guruh hamyurtlarim qatori “Shuhrat” medali bilan taqdirlanganim qalbinga cheksiz quvonch, oilamizga tuganmas shodlik olib keldi. Samimiy tilaklar, dil izhorlari bir dam bo‘lsa-dingani yo‘q.

Oddiy qishloq ayoli mehnati bu qadar e‘tirof etilib, rag‘batlantirilgani nafaqat men, balki butun farg‘onaliklar mehnatiga berilgan yuksak baho, desam mubolag‘a bo‘lmaydi. Bu zahmatli va sharafli kasb-hunarga ko‘ngil qo‘yib, mehnat qilayotganimga chorak asr bo‘ldi.

Oltiariq tumanidan kulollar yurti — Rishtonga kelin bo‘lib tushganimda oddiy loydan bu qadar bejirim buyumlar tayyorlayotgan kishilarga havas va hayrat bilan boqardim. Qanday ajib, go‘zal damlar...

To‘da qishlog‘idagi kasb-hunar kolleji ishlab yurgan kezlirim kulollik, chinnisozlik yo‘nalishida ishlayotgan tadbirkor va ishbilamonlarga ergashib, ur sharoitida kulollik buyumlariga turli bezaklar berish bilan shug‘ullanib keldik. Havasdan boshlangan ish shu tariqa ko‘nglim tubidan joy oldi, biznes boshlashimga zamin yaratdi.

Ayniqsa, tadbirkorlik, hunarmandlikni rivojlantirish, ularni ko‘llab-quvvatlash, rag‘batlantirish yo‘lidagi imtiyoz va imkoniyatlardan kuch-quvvat oldik.

2018-yilda Rishton tumanidagi “Navbahor” sanoat zonasida kulollik va chinni buyumlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan “Olimjon-Ilyosbek” mas‘uliyat cheklangan jamiyatiga asos soldik. O‘tgan yili umumiy qiymati 9 milliard so‘mdan ortiq sopol va chinni buyumlar ishlab

chiqarildi. 200 dan ortiq yosh uchun ish o‘rinlari ochdik. Mahsulotimiz ichki bozordan tashqari qo‘shni mamlakatlarda, Rossiya va hattoki Yevropa bozorlariga ham kirib bordi.

Milliy hunarmandlik yo‘nalishida bo‘lib o‘tayotgan ko‘plab xalqaro ko‘rgazmalarda ishtirok etib kelyapmiz. Shu kunga qadar Rossiya, Qozog‘iston, Tojikiston va Qirg‘izistonga umumiy qiymati 995 million dollarlik mahsulot eksport qilishga erishdik.

Xalq farovonligi, yurt obodligi yo‘lidagi izlanish va intilishlarimiz bir dam bo‘lsa-da, to‘xtagani yo‘q. Ayni kunda ko‘hna hunarmandlik an‘analarga xos noyob san‘at turlarini tiklash, rivojlantirish yo‘lida istiqbolli loyihalar ustida ishlayapmiz. Mahsulotlarimiz sifatini yanada oshirish, turlarini ko‘paytirish uchun barcha sharoit va imkoniyatlar yaratib berilgan.

Bugungi tadbirkor, hunarmand bundan besh-olti yil oldingilardan tubdan farq qiladi. Ular bilan suhbatlashib, amaliy ish jarayonlari bilan tanishib, orzu-maqaddarlari yuksak ekaniga qoyil qolaman. Ularning safida ekanimdan, ular bilan hamnafas, hamjihat bo‘layotganimdan hamisha faxrlanaman.

Endi sut mahsulotlari ishlab chiqarish sohasi rivojlana boshladi. Natija esa quvonarli, 2019-2020-yillar davomida fermer xo‘jaligimiz mablag‘lari hisobidan qiymati 15 milliard so‘mlikdan ortiq yirik chorvachilik loyihasini amalga oshirdik. Ushbu ishlarimiz yaxshi samara berdi. Bugun men rahbarlik qilayotgan “Kim Pen Xva chorva” fermer xo‘jaligimizda sut yo‘nalishida 600 boshdan ortiq yirik shoxli naslli qoramol boqilyapti. Shulardan 200 boshi sog‘in sigir. Kuniga 6 tonnadan ortiq sut mahsulotlari qayta ishlayapti.

Bildirilayotgan ishonch bizga g‘ayrat-shijoat bag‘ishladi. Bundan ruhlanib, kelgusida faoliyatimizni yanada kengaytirishni maqsad qildik. Endi sutni qayta ishlaydigan zamonaviy texnologiyalarni olib kelmog‘chimiz. Bu orqali xalqimiz dasturxoniga sifati va tabiiy mahsulotlar yetkazib berish niyatidamiz.



Dildagi gaplar

Prezidentimiz “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi qonunni imzoladi. Ishonamanki, bu vaqt o‘tgan sayin qimmatli oshadigan, vaqt o‘tgan sayin odamlarning fikr maydonlarini kengaytiradigan hujjatlardan biri hisoblanadi.

Ayniqsa, men pedagogika institutini tugatganim, bir oz fursat bo‘lsa-da, maktabda ishlaganim uchunmi, bu hujjatning qadrini teranroq his qilyapman. Unda qayd qilingan har bir o‘zgarish, har yangilik qadrli. Tez-tez maktab tadbirlariga boraman, xizmatim taqozosiga ko‘ra ustoz-muallimlar bilan suhbatlashaman, ta‘lim-tarbiya jarayoniga chuqurroq kirishga harakat qilaman. Boz ustiga, hozir ko‘pi nafaqaga

Shunday kunlarning birida yoshlar yetakchisi (“pionervojatyi” deyilardi):

— Opa, sizning bolalariniz bugun ham dalaga chiqar ekan... Ilmiy bo‘lim mudiri aytdi, — deb qoldi.

— Nega? Navbatimiz kecha o‘tgan, — darrov e‘tiroz bildirdim.

— Falonchining brigadasi tezroq to‘lishi kerak ekan, bir qo‘l ham harna, deyishyapti...

— 4-“A”ni umuman dalaga chiqarmanglar. Qani, ko‘ramiz, isyoni qayergacha borar ekan? Bolalari boshqalardan oldin olim bo‘lganini ko‘ramiz, — debdi.

Men ham to‘nimni teskari kiydim. Bir haftagacha bolalarni terimga olib chiqmadim. Ammo rahbarimni bildirib qo‘yardim. Isyonim qayergacha borardi? Oqimga qarshi suzganlar g‘arq bo‘lib ketadigan zamon... Yoshi ulug‘lar o‘rtaga tushib, yarash-yarash bo‘lib ketgan... Ammo og‘rig‘i anchagacha ichimni jizillatib turgan... Bunday voqealarning sanog‘i bormidi? Terim, yer tekislash, yagana, qatqaloq, o‘toq... Pillani aytmayisizmi? Bechora o‘qituvchilarni ko‘chalarga biriktirib qo‘yishardi. O‘n-yigirma yillab ipak qurti boqayotgan pillakorning eshigiga osilib turgan daftariga jimjimador

MAKTABGA QAYTISH ISHTIYOQI

yoxud qudratli muhofazaga asoslanayotgan tizim

chiqqan bo‘lsa-da, kursdosh do‘stlarimning aksariyati maktabda ishlaydi. Ular bilan uchrashganimizda ham suhbat o‘zani o‘z-o‘zidan maktab, bolalarga qarab burilaveradi.

Maqsad shuki, bu qonun keyingi yillarda maktab ta‘limi sohasida jadal sur‘atlar bilan amalga oshirilayotgan islohotlar tizimida yangi bir bosqichni boshlab berayotganini quvonch bilan aytmoqchiman. Albatta, yaxshi darsliklar, o‘quv muassasasida yaratilayotgan zamonaviy shart-sharoitlar, dars berish uslubidagi yangiliklar — bularning hammasi ta‘lim sifatini ko‘tarishga xizmat qiladi. Lekin jarayon markazida o‘qituvchining o‘zi turadi. Faqat uguna bilimdonligi, samimiyyati, mehri, burchiga sadoqati bilan o‘ziga terimlib turgan qorako‘zlar tafakkurini ziyo bilan yoritishiga qodir bo‘ladi. Faqat uguna turli sabablari bilan dilida kelajagi uchun orzu uyg‘onmay qolgan o‘g‘il-qizlar qalbiga harorati so‘zlari bilan cho‘g‘ tashlay oladi. Shu ma’noda, mazkur hujjatda nazarda tutilgan taqirlar ham, cheklovu haq-huquqlar ham tasodifiy emas, hammasi ehtiyojdan kelib chiqqan, desak haq gapni aytgan bo‘lamiz.

Hayotiy misollar gapimizni to‘la-to‘kis isbotlaydi, albatta. Yaqin-yaqinlarda ham o‘qituvchidan bitiruvchining bandligi ta‘minlangan-ta‘minlanmagani to‘g‘risida ma‘lumot talab qilinadi. Bitiruvchi sinf rahbarlari “Qayerdan bo‘lsa-da, bir parcha qog‘oz olib kelib ber, bo‘lmasa, mening ta‘til pulimni berishmayapti”, deb sobiq o‘quvchilarini qistovga olardi.

O‘zim guvoh bo‘lganman. Bir bitiruvchi ota-onasining tanishi rahbar bo‘lgan firmaning “Ishga kirdi” degan ma‘lumotnoma oladi. Uch-to‘rtta sinfdoshlari kompyuterda ma‘lumotnomani nusxalab (ism, familiyasini o‘zgartirib), firma muhriyiga yasab, o‘qituvchisiga olib borib bergan. Keyinchalik birovta odam “Bir firmaga, bitta o‘ringa nega uch-to‘rtta bitiruvchi qabul qilinadi?” deb qiziqmadi. Demak, bu qog‘oz biror foydali maqsad uchun kerak bo‘lmagan. Shunchaki rasmiyatchilik uchungina so‘ralgan.

“Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi qonunda “...Bitiruvchilarning bandligi ta‘minlangani haqidagi hisobotlarni shakllantirishni va taqdim etishni talab qilish ham etiladi” deyilgani ham maktab, maorif, xususan, ustozlar hayotidan bitta rasmiyatchilik chiqarib tashlanganini dalillaydi. Bir qarashda arzimagan narsaday. Yo‘q, soxtagarchilik, “xo‘jako‘rsin” uchun qilinayotgan har qanday holat odamlar, ayniqsa, yoshlarni yolg‘onga o‘rgatadi. “Shunday qilsa ham, shunday yashasa ham bo‘ladi” tarzidagi ko‘nikmani shakllantiradi. Bu xatolik jamiyat taraqqiyotini sekinlashtiruvchi omillardan biri. Bunga qonun kuchi bilan taqiq qo‘yilgani yolg‘onga, soxtagarchilikka qo‘yilgan taqiqdir.

O‘qituvchini tekin xizmatkorga aylantirgan zamonlar haqida ko‘p va xo‘p aytdik. Lekin yo‘qotilgan vaqt, qadr-qimmat alami shu qadar kuchli bo‘lar ekanki, vaqt o‘tsa ham unutilishi oson bo‘lmayapti. Institutni bitkazib, Quva tumanidagi Akbarobod qishlog‘ida joylashgan 29-maktabda dars bera boshladim. Ikki hafta o‘tar-o‘tmas, paxta terimga chiqish haqida buyruq keldi. To‘rtinchi sinf rahbarligini berishgan edi. Dastlabki paytlarda navbat bilan dalaga chiqadigan bo‘ldik. Navbati kuni bechora go‘daklarim (bo‘ylari g‘ozaning bo‘yidan past) dalabop kiyinib kelardi. O‘sha kuni o‘qishga hatsalalari ham bo‘lmadi. Navbatimiz o‘tgach, yana o‘quvchi formasida kelardik.



Qutlibeka RAHIMBOYEVA, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi

— Bolalarimning kiyimi... — deyishimni bilaman, asosan, rahbariyatning yugurdaklik xizmatlarini qiladigan yetakchi:

— Bolalarimizni mashinaga chiqarishdi, o‘zingiz chiqsangiz, bas, — desa bo‘ladimi! Hovliga yugurib chiqdim, go‘daklalarim past-baland bo‘lib ochiq mashinaning kuzovida turibdi:

— Qani, tushinglar hammalaring, sinfga kiringlar, — deb hayqirdim.

Bolalarim tapir-tupur tusha boshlagan edi, allaqaydan yetib kelgan direktor o‘rinbosari:

— Bu nima o‘zboshimchalik? Dalaga chiq, degandan keyin chiqasiz-da, nima osmondan tushganmisiz? Siyosatni bilasiz-ku, — deya boshladi.

— Mening bolalarim shu bugun bormaydi. Agar meni dorga tortsanglar ham bormaydi. Kir hammang sinfga! — deb bolalarni darsga boshladim.

Direktorimiz bu mojaroni eshitib:



Munosabat

Turg‘unoy EGAMBERDIYEVA, Farg‘ona davlat universiteti professori, pedagogika fanlari doktori, “Mehnat shuhrati” ordeni sohibi

Prezidentimizning “Ayollar nafaqat oila ustuni, jamiyat tayanchidir. Ayol o‘z hayotidan, bizzdan rozi bo‘lsa, butun xalqimiz ham rozi bo‘ladii” degan so‘zlari hamisha yurak-yuragimizda jaranglab turadi. Men ham shu yurtning bir ayoli, onasi va pedagog-olimasii sifatida hayotim, jamiyatdagi o‘rnim, ona yurtim, ilm yo‘lida zahmat chekayotgan xotin-qizlarga mehruhbatdan hamisha roziman, deb baralla ayta olaman. Buning aytishga arzirli juda go‘zal sabablari bor, albatta.



OLIMALIK SHARAFI — UMRIMGA ZEB

Uzoq yillik ilmiy izlanishlarim, esla pedagogik faoliyatim davomida e‘tibor, qo‘llab-quvvatlovni his etib, yuksak ishonchdan kuchga to‘lib yashayapman, mehnat qilyapman.

Bugun faxriy yoshimda ko‘ksimga qadalgan yuksak davlat mukofoti — “Mehnat shuhrati” ordeniga boqib, sevinch, shukronalik va minnatdorlik ko‘z yoshlarimni to‘xtatolmayapman. O‘zimni yanada yosharganday, yanada o‘ktam his etib, jamiyat, Vatan kelajagi uchun, yosh avlod ta‘lim-tarbiyasi uchun yana uzoq yillar mas‘ul ekanimni teran anglayapman. Jonajon Farg‘ona davlat universitetidagi

ilmiy-pedagogik faoliyatimni esa bugungidan-da rivojlantirish, munosib shogirdlar tarbiyalash ishtiyoqi bilan yonayapman. Universitetimizda ko‘p sonli talabalar, xususan, xotin-qizlarning jamiyatdagi faolligini yanada oshirish, mavqeyi yuksaltirish, huquqlarini har tomonlama himoyalash, salomatligini muhofaza qilish, itilish va tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash, munosib mehnat va yashash shart-sharoitlarini yaratishdek dolzarb maqsadlar yo‘lidagi sa‘y-harakatlar ko‘lami kundan-kunga kengayib bormoqda.

Oliy ta‘lim tizimida yaratilgan sharoitlar sabab ilmiy tadqiqot ishlari bilan shug‘ullanayotgan, olimalik, pedagogik sharafiga erishish uchun astoydil intilayotgan xotin-qizlarimiz safi tobora kengayib borayotgani barchamizni quvontiradi.

Ayolga imkoniyat va vakolat berishni tom ma’noda oqlayotgan jamiyatimiz, albatta, yuksalish yo‘lida bardavom bo‘ladi. Bu borada biz kabi olimla, pedagog xotin-qizlar davlatimizning yuksak ishonchi va e‘tiboriga munosib, ilmu ma‘rifatli avlodni tarbiyalash yo‘lida hamjihat bo‘lishga hamisha hozirimiz.



qonunga “...Ish haqidani uning yozma rozilgisiz tovar va xizmatlar uchun mablag‘ ushlab qolish mumkin emas” deb muhrlanibdi. Albatta, besh-o‘n so‘m bilan oluvchi boyib qolmaganidek, beruvchi ham faqir tushmaydi. Lekin hamma quvonch nohaqlikka chek qo‘yilayotganida. Nohaqlik yo‘q joydagina, adolatga ishonch mustahkam jamiyatdagina fidoyilik bo‘ladi. Adolat fidoyilikning birlamchi garovidir. Jon-u jahonngni tikishga arziydigan mezon bu — adolat!

Bizning guruhimiz institutda yaxshi o‘qigan. Bir emas, ikki emas, naq o‘n to‘rttmiz imtiyozli diplom olganmiz. Institut tarixida bunaqasi bo‘lmagan, degan ustozlarimiz. Lekin nazariy bilim boshqa, sinfxona, o‘quvchilar bilan yuzma-yuz bo‘lish boshqa. Har xil tarbiya tugay bolalar... Ayniqsa, yuqori sinflar... Esimda, bir sinfga kirganimda o‘smir yigitchi sinfdoshining sochidan tortib, partaga yotqizib do‘pposlayotgan ekan. O‘zi shu sinfga kirishimdan avval sinf rahbari:

— Rasul ismi o‘quvchim bor, a‘lochi, juda dunyoqarashi keng, lekin juda tevoz. Yarimta gapni ko‘tara olmaydi, ehtiyot bo‘lib muomala qiling, — deb tayinlagan edi. Mushuga erk bergan bolaning o‘sha Rasul ekanini bildim. Qiz dod solib yig‘layapti... Stol yoniga borib, indamay qarab turaverdim. To‘g‘risi, holatni muhokama qilishga hali tayyor emas edim. Indamay qarab turaverganimdan so‘ng asta-sekin tinchlanishdi, hamma joy-joyiga o‘tirgach:

— Men sizlarning yangi adabiyot o‘qituvchingizman. Adabiyot eng avval kitoblar, degani. Qani kim ta‘tilda qanday kitob o‘qidi? Umumiyo‘rt ta‘lim tashkilotida ilk bor kasbiy faoliyatini boshlayotgan shaxsa bir o‘quv yili davriga murabbiylikni amalga oshirish uchun tajribali pedagog biriktiriladi” tarzida belgilab qo‘yilgani o‘sha men tushgan holatlarda juda qo‘l keladi. Yosh o‘qituvchisan, kimdagi o‘z-o‘zingcha murojaat qilaverishga iymanshish mumkin. Qonun bilan belgilab qo‘yilgani tajribali ustozlarning yosh izdoshlari oldida burchdorligini ta‘minlaydi.

Qonunning qaysi nuqtasiga qarasangiz, hammasi soha ehtiyojidan kelib chiqqaniga amin bo‘laversasiz. Biz talaba bo‘lgan paytimizda sirtqi o‘qishlar bor edi. Keyin bir oraliqda sirtqi, kechki o‘qishlardan voz kechildi. Ehtimol, bu o‘zgarishda ham “Kunduzgi o‘qishda puxtarok

bilim olinadi” degan bir haqiqat bo‘lgandir. Ammo pedagogika yo‘nalishida sirtidan o‘qish, ya‘ni maktab faoliyati bilan bilimni birga qo‘shib olib borish yomon natija bermaydi.

Yaqin qarindoshimizning iqtidorli qizi bor. Durustgina qalami ham, boshqaruvchilik qobiliyati bo‘lgan bu qizni ikkinchi kursni tugatgach, joyi chiqib, uzatishdi. Egizak farzand ko‘rdi. Goh onasi, goh qaysingillari ijara uyida turib, bolalarga yordam berdi. Ammo parvarishi ko‘ngildagidek emasmidi, go‘daklar injiq, tez-tez kasalga chalinaldigan bo‘lib qoldi. Natijada ne umidlar bilan o‘qiyotgan kelinchak ilm olishni yo‘l o‘rtasida to‘xtatishga majbur bo‘ldi. “Mening boshqa bir dunyom bor edi, vaziyatga yem bo‘lib ketdi”, deb afsus bilan gapiradi hozir ham. Farzandlari bor, oilasi yaxshi... Lekin ba‘zi insonlar undan ko‘prog‘iga yarasha iqtidor bilan dunyoga keladi. Vaziyat taqozosi bilan orzular paymoli bo‘lsa, bu foni dunyodan ko‘nglinging bir chekkasi huvillab o‘tadi. Qonunda qayd etilgan “Oliy ma‘lumotga ega bo‘lmagan, ammo ta‘lim tashkilotlarida kamida besh yil ish stajiga ega pedagog xodimini kirish test sinovlarisiz to‘lov-kontrakt asosida va qabul parametrlaridan tashqari OTMning pedagogika yo‘nalishiga (sirtqi, kechki va masofaviy ta‘lim shakli) suhbat asosida o‘qishga qabul qilish” tarzidagi yozuvga ko‘zi tushgan bo‘lsa, o‘sha qarindoshimning orqaga qaytgisi, yillarni orqaga qaytagisi kelgandir. U nari tursin, to‘g‘risi, o‘zining ham maktabga qaytgim kelib ketganiga nima deysiz?

“...Mehnatga yarasha haq to‘lash, rag‘batlantirish, ijtimoiy himoya qilish tamoyillari belgilandi”. Bugungi o‘qituvchilarga havas bilan qarashga izn beruvchi bunday qaydlarni o‘qir ekanman, yana xotiram xayollarimni o‘tgan yillarga sudrab ketadi. O‘quvchilarimni darsimga qiziqitirishga jon-jahdim bilan harakat qilardim. Yozuvchi, shoirlar haqida chop etilgan albomsimon kitob yordamida ko‘rgazmali qurollar-stendlar yasatirganman. Oybek, G‘afur G‘ulom, Zulfiya, Hamid Olimjonga atalgan stendlarim xonamga ko‘rk berib turardi. Tunlarni tonglarga ulab, she‘rlar, asar qahramonlari nomlari yozilgan kartochkalar tayyorlardim. Bu ishlarga o‘quvchilarimni ham tortardim. Bolalar atrofida uymalashgani uymalashgan edi. Ammo men ham (boshqa jonkuyar muallimlar ham, ular ko‘p edi), bitta tayoq (xarita ko‘rsatkich) bilan dars o‘zini chiqadigan jug‘rofiya o‘qituvchisi ham bir stavka darsimiz uchun bir xil oylik olardik. Boz ustiga, dars berish uslubimda nimadur qaratilgan qilmoqchi bo‘lsam, ya‘ni o‘sha paytda rasman qabul qilingan uyga vazifani tekshirish va yangi

dars o‘tish metodikasidan salgina chekinmoqchi bo‘lsam ham kuzatishga kirgan ilmiy bo‘lim mudirimiz:

— Farg‘onada o‘qisang o‘qibsan-da, ustozing senga dasturga kirmagan shoirmi o‘rgatsa o‘rgatibdi-da (institutda rahmatli Asqarali Sharopov domlamiz dasturda yo‘q Cho‘lponni o‘tib bergan edi. Men ham yuqori sinflarda domlaga taqild qilmoqchi bo‘lgandim), sen Amerika ochma. Dasturda nima yozilgan bo‘lsa, shuni qil, — deb tanbeh bergan. O‘zboshimchaligim pedagogika kengashida muhokama ham qilingan. Hozirgi islohotlar, ayniqsa, pedagogning o‘z uslubini yaratishga bo‘lgan rag‘bat, maktablarga vaqt miqyosda texnikaviy vositalarning kirib kelishi... qanchalar suyuirtadi odami.

Kelajakni tasavvur qilaman. Shunday katta imkoniyatlaru imtiyozlar aro kunbaku yuksalayotgan muallimlar yaratgan xalq (yaxshi ustozlar olomon emas, xalq yaratishiga ishonaman) nechog‘liq go‘zal xalq bo‘lar ekan!

Bugun shiddatli o‘zgarishlar to‘lqinida yuzaga chiqayotgan: “Sinflarimizda me‘yordan ortiq o‘quvchilar o‘tiribdi. Ham o‘tirishlari (bir partada uch kishidan) to‘laqloni dars o‘tishimga xalaqit beradi, ham sonlarining ko‘pligi ayrimlarini e‘tibordan chetda qoldiradi. Ayniqsa, qiyin o‘zlashtiradigan o‘quvchilarga vaqt kamroq qolyapti”, “Davomati birinchi o‘ringa chiqqiz qoldi. Aslida, o‘zlashtirishga kuch berish kerak edi”, “Hanuz eski hammom, eski tos. Bizga yetib kelgunicha, ehhe...” kabi ovozlarni ham eshitib qolamiz.

Ular ham yolg‘onlashayotgani yo‘q. Ularning ham gaplarida jon bor. Demak, “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi qonun qaysi nuqtalarga kuchli, jasur ishchi maqomida kirib borishi kerakligi ana shu gap-so‘zlardan ham ayon bo‘lib qoladi. Odamlarning, ayniqsa, o‘z sohasi haqida fikrlayotgani, fikrini ayta olayotganiga ham ijobiy hodisa sifatida qarash kerak. Sukut she‘riy o‘xshatishlarda chiroyli, xolos. Jamiyatdagi sukut yo‘g‘ofillik yo‘qo‘rqoqlikdir.

Qachonlardir qandaydir qarorlar, farmonlar, qonunlar qabul qilinsa, xalq bu holatni o‘zi, o‘zining hayotiga aloqasi yo‘qday, faqat o‘sha majlislarda qo‘l ko‘tarib, tushirib o‘tirgan bir guruh kishilarga tegishliday bir kayfiyatda qabul qilardi. Bugun esa bu hujjatlarining, shu jumladan, yuqoridagi munosabat bildirilgan “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi qonunga ham o‘z faoliyatiga yorug‘ bir yo‘nalish, fikratiga kuch beradigan manba sifatida qaralmoqda. Bir she‘rda aytilganidek, bu uyg‘onishning aynan o‘zi bo‘lmasa-da, boshlanishidir. Shunisi biz uchun, hammamiz uchun juda muhim.

